

Glossariy:

1. **Anod xarakteristikasi** – Elektron lampalardan o'tayotgan anod tokining anod kuchlanishiga bog'liqligi.
2. **Aktiv filtr** – sxemasida elektr manbai mavjud bo'lgan elektr filtri.
3. **Bog'langan konturlar** – elektr zanjirida o'zaro bog'lanishdagi signalga ishlov beruvchi konturlar.
4. **Bog'lanish g'altagi** – ikki konturni o'zaro bog'lovchi induktivlik g'altagi.
5. **Detektor** - YUqori chastotali tebranishlarini xabar signalidan ajratuvchi qurilma.
6. **Diskret signallar** – radioelektron zanjirlarda uzlukli tarzda yuzaga keladigan signallar.
7. **Zanjir qarshiligi** – elektr zanjirining signallar o'tishiga qarshilik ko'rsatish xossasi.
8. **Zanjir o'tkazuvchanligi** – elektr zanjirining qarshiligiga teskari bo'lgan kattalik.
9. **Induktiv bog'lanish** – o'zaro induktivlik g'altaklari bilan bog'langan bog'lanishni ifodalovchi kattalik.
10. **Induktiv qarshilik** – Elektr energiyasini magnit maydon energiyasi sifatida jamlovchi element.
11. **Qirqish chastotasi** – radioelektron zanjirning signallarning o'tkazuvchi va o'tkazmovchi sohalarini ajratuvchi chastota.
12. **Kovak** – YArimo'tkazgichlarda musbat bo'sh o'rinlar (lokal ionlar zaryadi).
13. **Kontur aslligi** – konturda jamlangan energiyaning tebranish jarayonida nisbiy sarflanishini ifodalovchi tushuncha.
14. **Kritik bog'lanish** - konturlararo bog'lanish faktori birga yaqin bo'lgandagi bog'lanish.
15. **Kuchlanishlar rezonansi** – RCL elementlari ketma-ket ulangan zanjirda reaktiv elementlardagi kuchlanishlarning X_L q X_C bo'lgan holdagi holati.
16. **Mikrosxema** – 1 sm^3 hajimda kamida 5 ta element joylashadigan elektron sxema.
17. **Modulyasiya** – YUqori chastotali tebranishlarning parametrini xabar signali ta'sirida o'zgartirish jarayoni.
18. **Modulyator** - YUqori chastotali tebranishlarning parametrini xabar signali ta'sirida o'zgartirish jarayoni amalga oshiriladigan qurilma.
19. **Nochiziqli element** – Parametrlari zanjirdagi tok kuchi va kuchlanishning o'zgarishiga bog'liq bo'lgan asboblari.
20. **Oraliq chastota filtri** – biron oraliq chastotadagi signallarni to'suvchi yoki faqat shu chastotadagi signallarni o'tkazuvchi filtr.
21. **Passiv filtr** – sxemasida elektr manbai qatnashmaydigan filtr.
22. **Past chastota filtri** – past chastotali signallarni o'tkazuvchi filtr.
23. **Pezoelektrik filtr**- sxemasida pezoelektrik kristall qatnashgan filtr.
24. **Pezoelektrik effekt**- kristallaning o'lchamlari tashqi elektr maydoni ta'sirida o'zgarishini ifodalovchi xodisa.

25. **Radiodarcha-** Atmosfera qatlamlarida yutilmay kosmik fazoga chiqib ketadigan radiosignallar to'liqlari oraligi
26. **Radiosignal** – Radioelektron zanjirlarda tarqaladigan axborotlar.
27. **Radioelektron zanjirlar** – Radiotexnik elementlarning ma'lum bir tartibda joylashishidan iborat sxema.
28. **Radioelektronika** – Fan va texnikaning rivojlanish tarixida radiotexnika va elektronika fanlarining o'zaro qo'shilishidan vujudga kelgan fan hisoblanadi.
29. **Raqamli signallar** - radioelektron zanjirlarda uzlukli tarzda raqamlar bilan ifodalanadigan signallar.
30. **Rezonans chastota** – konturning xususiy chastotasi tashqi signal chastotasiga teng bo'lgan chastotasi.
31. **Sig'im bog'lanish** – kondensator orqali konturlarning o'zaro bog'lanishi.
32. **Sirti to'liqlar-** er sirti bo'ylab tarqaladigan signallar.
33. **So'nish koeffitsienti** – tebranish amplitudasining bir davrda kamayishini ifodalovchi kattalik.
34. **So'nuvchi tebranish** – amplitudasi vaqt bo'yicha kamayib boruvchi tebranma harakat.
35. **Tasodifiy signallar** – radioaloqada tasodifan yuzaga keladigan signallar.
36. **Termoelektron emissiya** - Issiqlik ta'sirida qattiq jismdan elektronlarnig chiqarish xodisasi.
37. **Toklar rezonansi** – elementlari o'zaro parallel ulangan elektr zanjirida kuzatiladigan xodisa.
38. **Tranzistor** – Tok kuchini yoki kuchlanishni (elektr signallari) kuchaytirib o'tkazish xossasiga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli asbob.
39. **Transformatorli bog'lanish** – konturlarning o'zaro transformator orqali bog'lanish.
40. **To'suvchi filtr** – biron chastotadagi signallarni o'tkazmaydigan filtr.
41. **O'lik soha-** er sirtining radioto'liqlar etib bormaydigan sirti.
42. **O'tkazish sohasi** – biron chastotadagi signallarni o'tkazadigan filtr.
43. **Fazoviy to'liqlar-** er atmosferasining yuqori qatlamlaridan qaytadigan radioto'liqlar.
44. **Fotoeffekt** – YOrug'lik ta'sirida qattiq jismdan elektronlarnig chiqarish xodisasi.
45. **Xabar signali** – Elektr tabiatiga ega bo'lmagan turli ma'lumotlar.
46. **Xarakteristik qarshilik-** induktivlik yoki sig'imning rezonans chastotada ko'rsatadigan rezonans qarshiligi.
47. **Xususiy o'tkazuvchanlik** – YArimo'tkazgichlarda xususiy zaryad tashuvchilar (elektron va kovak) lar hisobiga hosil bo'lgan o'tkazuvchanlik.
48. **Xususiy chastota-** konturning elementlari parametrlaiga bog'liq bo'lgan tebranish chastotasi.
49. **SHovqin** – radioaloqaga xalaqit beruvchi signallar.
50. **Elektr filtrlari-** elektromagnit tebranishlarni saralab o'tkazuvchi zanjir.
51. **Elektrovakuum asboblari** – Vakuumda zaryadli zarrachalar harakatiga asoslanib ishlovchi elektron lampalar.

52. **Elektromagnit to'liqlar** – YUqori chastotali va efirda tarqatishga mo'ljallangan to'liqlar
53. **Elektromexanik filtr** – elektromagnit tebranishlarni mexanik tarzda saralab o'tkazuvchi zanjir.
54. **Elektronika** – Elektrovakuum va yarimo'tkazgich asboblarni ishlab chiqarish va hozirgi zamon radioelektronikasida ishlatilish masalasini o'rganadigan fan.
55. **Elektrotexnika** – Sanoat chastotali o'zgaruvchan toklarni ishlab chiqarish, ularni uzatish va taqsimlash masalalarini o'rganadigan fan.
56. **Eltuvchi tebranish** – Xabar signallarini olib ketuvchi yuqori chastotali tebranish.
57. **YUqori chastota filtri**- yuqori chastotali tebranishlarni o'tkazmaydigan filtr.
58. **YArimo'tkazgich** – Elektr o'tkazuvchanligi bo'yicha metallar va dielektriklar oralig'idagi holatni egallagan modda.
59. **YArimo'tkazgichli asboblari** – YArimo'tkazgichlik xossasiga ega bo'lgan jismlar asosida yasalgan elektron asboblari.
60. **YArimo'tkazgichli diod** – Elektr tokini bir tomonlama o'tkazish xossasiga ega bo'lgan elektron asbob.
61. **RC – zanjir** – chiqish qismiga kondensator parallel ulangan qarshilikli zanjir.
62. **CR – zanjir** – chiqish qismiga qarshilik parallel ulangan sig'imli zanjir.
63. **LR – zanjir** – chiqish qismiga qarshilik parallel ulangan induktivli zanjir.
64. **RL – zanjir** - chiqish qismiga induktivlik parallel ulangan qarshilikli zanjir.
65. **LC – zanjir** – tebranish konturidan iborat zanjir.